

**Ona tili va adabiyot. DTM 2019 29.07.2019**

1. **Kimning onasi alam va iztiroblar ichida vafot etgan?**  
A. O. Sharafitdinov B. Hamid Olimjon  
C. Cho'lpon D. Erkin Vohidov
2. **Mardlarning parvoyi bo'lmas o'limdan ...**
3. **Parcha qaysi dostonidan olingan ?**  
A. Ravshan B. Rustamxon C. Alpomish D. Kuntug'mish
4. **Qaysi gapda 3 ta aniqlovchi birikma mavjud?**  
A) Bunday ilmiy-ommabop kitoblarning ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.  
B) Beshafqat shamol sovuqdan qaltirayotgan daraxtlarning so'nggi yaproqlarini ayovsiz qamchilaydi.  
C) Haqiqiy tarixini bilmagan, o'tmishini unutgan avlod kelajagini tasavvur qilish qiyin.  
D) O'z tilingizda aniq fikrlashga, toza gapirishga, har xil yot unsurlardan saqlanishga harakat qiling.
5. **Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi.**  
Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkumlariga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan bo'laklar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) yordamchi so'zlar ikki o'rinda o'tni, bir o'rinda fe'lni hokim qismga tobelantirgan.  
B) yordamchi so'zlar bilan shakllangan bo'laklarning barchasi kesimga bevosita tobelangan.  
C) yordamchi so'zlar bir o'rinda hol, ikki o'rinda to'ldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan.  
D) yordamchi so'zlarning ikkitasi sof ko'makchi, bittasi vazifadosh bog'lovchi hisoblanadi.
6. **Ko'p duosi ko'l bo'lur, Oz-oz bersa mo'l bo'lur.**  
Berilgan maqolda tor unililar nechta ochiq bog'inni hosil qilish uchun qatnashgan?  
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1
7. **Qaysi shoir sherida Ulug'bekni padarkushdan pana qilib quchgusi keladi degan fikr uchraydi?**  
A. T. Sulaymon B. A.Oripov C. E.Vohidov D. M.usuf
8. **"Bu xoksvor va parishonro'zg'or kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan aylanuvchi osmon hodisalaridan fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan foydalanmasligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim..."**  
Ushbu misralar A.Navoiyning qaysi asaridan olingan?  
A) "Hayrat ul-abror" B) "Sab'ayi sayyor"  
C) "Mahbub ul-qulub" D) "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"
9. **Qaysi shoir "Bayrog'imga qon bilan yozgan ontim oldinga undaydi" deb yozgan?**  
A. Musa Jalil B. Hamza C. A.Oripov D. M.Yusuf
10. **Qaysi she'rda insonning ona oldidagi burchi hech qachon to'lab bo'lmaydigan qarz ekanligi ta'sircha ifodalangan?**  
A. "Iltijo" B. "Haqqush" C. "Qarz" D. "O'ris bolaning oyisi"
11. **"Rost so'z ta'rifida" deb nomlangan qism qaysi asarda uchraydi?**  
A. Birinchi muallim B. Nasihatlar  
C. Hayrat ul-abror" D. Sabbayi Sayyor
12. **Muqimiyning "Sayohatnoma" asari necha qismdan iborat?**  
A. 2 B. 3 C. 4 D. 5
13. **"Qorasoch" asari muallifini toping.**  
A. Musa Jalil B. To'ra Sulaymon C. M. Yusuf D. E.Vohidov
14. **"Bo'rilardan omon kutmak tentaklarning ishidur ul" misrasi kimning she'rida uchraydi?**  
A. T. Sulaymon B. A .Oripov C. Cho'lpon D. Musa Jalil
15. **"Mehr qolur, muhabbat qolur" muallifini toping.**  
A. Musa Jalil B. To'ra Sulaymon C. M. Yusuf D. E.Vohidov
16. **Qaysi shoirning o'limi oldidan qilgan orzusi ro'yobga chiqadi?**  
A. Musa Jalil B. To'ra Sulaymon C. M. Yusuf D. E.Vohidov
17. **Mehribonim kelgan ekan ming shukur, Tulporini yelgan ekan ming shukur.**  
Parcha qaysi xalq dostonidan keltirilgan?  
A. Ravshan B. Rustamxon C. Alpomish D. Kuntug'mish
18. **Bepoyon sahroda halokatga uchragan karvondan omon qolgan inson qaysi asarda uchraydi?**
19. **Dunyo, dunyo, dunyo e, kimga vafo qilarsaney.**  
Ushbu parcha qaysi asardan olingan?  
A. Fitrat. Abulfayzxon B. E. Vohidov. Ruhlar isyoni  
C. Odil Yoqubov. Ulig'bek Xazinasi D. Shum bola
20. **"Qashqirdan tug'ilgan qashqircha" qaysi asarda uchraydi?**  
A. Shum bola B. Muzqaymoq C. Oq kema D, Ruhlar isyoni
21. **Vafosizdan aslo hayo istama, Hayosizdan aslo vafo istama.**  
Ushbu baytda qanday san'at qo'llangan?  
A. Tazod B. Tashbeh C. Tarse D. Talmeh
22. **G'unchaning gul bo'lib ochilishini kim husni ta'lil vositasida tasvirlagan?**  
A. Furqat B. Navoiy C. Ogahiy D. Usmon Nosir
23. **Saddi iskandariya zulkarnaydi onasini ismi nima?**
24. **Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu? Xasta ko'nglim dog'ida dardu balosi qoldimu? Kimning g'azali?**  
A. Munis B. Navoiy C. Furqat D. Bobur
25. **Har yili keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dirdiragan tanlariga iliq qon yugurdi.**  
Qaysi asardan?
26. **Qutlug' qonda Mirzakarimboy Gulnorga nima deb murojaat qiladi?**
27. **Alisher Navoiy Xamsaning qaysi dostonida o'z asarini o'tinga o'xshatadi?**  
A. Hayrat ul abror B. Farhod va Shirin  
C. Layli va Majnun D. Saddi Iskandariya
28. **Bugun tushgan savol qaysi ijodkorning rafiqasi oilaviy nochorlikdan oilasini tashlab ketadi?**
29. **Navoiyning qaysi g'azali boshdan oyoq tazodga asos bo'luvchi san'atda qurilgan?**
30. **Laylo dostoni kimniki?**
31. **Oripov qalamiga mansub bo'lgan "Ayol" she'ri kimga bag'ishlangan?**  
A) Urushdan qaytmagan amakilarining bevalariga bag'ishlangan.  
B) Butun yurt ayollariga bag'ishlangan.  
C) Onalarga bag'ishlangan  
D) maktab o'qituvchisi Salima opaga bag'ishlangan
32. **Fitna deb qaysi asar qahramoniga murojat qilinadi?**
33. **... suzishning o'z qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki romolni sidirib suziladi.**  
G.Gulomning "Shum bola" asaridan olingan ushbu parchada nuqtalar o'rniga qoyilishi kerak bolgan sozni toping.  
A) ayron B) sharbat C) bo'za D) qatig
34. **G.Gulomning "Shum bola" asaridagi Yaxshiqiz kim?**  
A) Omonning singlisi B) bo'zagar kampir  
C) Qoravoyning ammasi D) Sariboyning xotini
35. **Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani qaysi jurnalda bosilib chiqqan?**  
A) "Mushtum" B) "Sharq yulduzi" C) "Tafakkur" D) "Inqilob"
36. **"Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bolsa, ayb zamondoshlarida".**  
Parcha qaysi asardan?  
A) "Nasihatlar" B) "Mahbub ul-qulub"  
C) "Zarbulmasal" D) "Qutadgu bilig"
37. **"Dahnoma" kimniki?**
38. **Boburning soliqqa doir asarini toping.**
39. **Chorgoh maqomiga kim.savtlar bitgan ?**